

**Irodaxon ZAYNOBIDINOVA,**  
Andijon davlat pedagogika instituti assistent- o'qituvchisi  
E-mail: [zaynobidinovairoda@gmail.com](mailto:zaynobidinovairoda@gmail.com)

Filologiya fanlari nomzodi, dotsenti M.Ishonjonova taqrizi asosida

## PRESENT TENSE VERBS IN THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE ENGLISH AND UZBEKI-SPEAKING WORLD

Annotation

This article explains that in the Uzbek linguistic artistic imagination of the world, the present future tense is not limited to a specific time, that a person or object expresses a typical action, and that the commission of an action is directly related to the moment of speech. Also, in the English-speaking world, it is interpreted that the simple present tense itself differs from other forms of the present tense by expressing the content of the action: the constant state or movement of a thing or person, absolute truth, or the state of nature, habitual and repeated actions.

**Keywords:** linguistic artistic imagination of the world, modern Uzbek language, action, expression, English, category of time, tense forms, grammatical forms.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILI OLAM LISONIY MANZARASIDA HOZIRGI ZAMON FE'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek olam lisoniy manzarasida hozirgi kelasi zamon harakatning bajarilishining biror vaqt bilan chegaralanmasligi, shaxs yoki predmetning odatiy harakatni bildirishi, harakatning bajarilishi bevosita nutq momentiga oid bo'lishi yoritiladi. Shuningdek ingliz lisoniy olamida ham oddiy hozirgi zamonning o'zi harakatning mazmunini ifodalanishiga ko'ra farqlanishi: narsa yoki shaxsning doimiy holati yoki harakati, mutlaq haqiqat yoki tabiat holati, odat tusiga kirgan va takrorlanuvchi harakatni ifodalashi bilan hozirgi zamonning boshqa shakllaridan farqlanishi talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** olam lisoniy manzarasi, hozirgi o'zbek tili, harakat, ifodalash, ingliz tili, zamon kategoriyasi, zamon shakllari, grammatik shakllar.

## ГЛАГОЛЫ НАСТОЯЩЕГО ВРЕМЕНИ В ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ ЛАНДШАФТЕ АНГЛОЯЗЫЧНОГО И УЗБЕКОЯЗЫЧНОГО МИРА

Аннотация

В данной статье поясняется, что в узбекском лингвистическом картине мира настоящее будущее время не ограничивается конкретным временем, что человек или предмет выражает типичное действие, и что совершение действия напрямую связано с к моменту речи. Также в англоязычном мире трактуется, что само простое настоящее время отличается от других форм настоящего времени выражением содержания действия: постоянного состояния или движения вещей или человека, абсолютной истины или состояния природы, привычных и повторяющихся действий.

**Ключевые слова:** языковой картина мира, современный узбекский язык, действие, выражение, английский язык, категория времени, форма времени, грамматические формы.

**Kirish.** Turli tillarda hozirgi zamon fe'li nutq so'zlanayotgan vaqtda sodir bo'layotgan ish-harakatni anglatadi, masalan:

O'zbek tilida	Men jurnal o'qiyapman.
Rus tilida	Я читаю журнал.
Ingliz tilida	I read a magazine.

Bundan tashqari M.Irisqulov mazkur zamonning quyidagi ma'nolarini ko'rsatadi:

1. <u>Doimiy to'xtovsiz takrorlanib turadigan ish harakatni:</u>	
<u>O'zbek tilida</u>	<u>Toshkent O'zbekistonning poytaxti.</u>
<u>Rus tilida</u>	<u>Земля вращается вокруг своей оси.</u>
<u>Ingliz tilida</u>	<u>The earth rotates round the sun.</u>
2. <u>Ma'lum vaziyatda kelasi zamon ma'nosini:</u>	
<u>O'zbek tilida</u>	<u>Ertaga uyga ketayman.</u>
<u>Rus tilida</u>	<u>Завтра вылетаю домой.</u>
<u>Ingliz tilida</u>	<u>I go home tomorrow.</u>
3. <u>O'tgan zamon ma'nosini ham anglatishi mumkin:</u>	
	Вчера захожу в институт и встречаю родителей.

O'zbek tilida bu zamonning hozirgi-kelasi zamon fe'li (1); hozirgi zamon davom fe'li (2) turlari bor.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq jarayonida va undan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Bu ma'no fe'l o'zagiga -a, -y ravishdosh yasovchi affiksial morfemani qo'shish va tushlash bilan ifodalanadi: *Ishni hoziroq boshlaymiz. Ular bugun kelishadi.*

Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning aynan nutq jarayonida sodir bo'layotganini ifodalaydi.

O'zbek tili grammatikalarida hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq momentida bo'layotgan harakatni ifodalash uchun (aniq hozirgi zamon ma'nosida) qo'llanishi ta'kidlanadi. Fe'llar bildirgan harakatlar ma'lum bir konkret vaqtda bajarilishi jihatdan bir-biridan farqlanmasa-da, bu harakatlarning qay tarzda ifodalanishiga qarab **-yotgan + edi** yoki **-(a)r + edi** shakli qo'llanadi. Ma'nolar quyidagicha farqlanadi:

1. Agar maqsad harakatning bajarilish **momentini ta'kidlash** bo'lsa, **-yotgan-** **-edi** yordamida yasaluvchi shakl qo'llanadi.

2. Asosiy e'tibor umuman harakatning **bajarilish holatiga** qaratilgan bo'lsa, **-(a)r + edi** yordamida yasaluvchi shakl qo'llanadi. Bunda harakatning bajarilish momenti ta'kidlanmaydi (!).

Quyidagi misolda -yotgan + edi va -(a)r+edi yordamida yasalgan shakllar bildirgan harakatlar aniq bir vaqtda bajarilayotgan harakatlarni bildirsa-da, bu ikki shaklning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin emas:

<p><u>Qunduzxon yugurib chiqdi. Xotin qo'lidagi buyumlarni stolga qo'vayotgan edi.</u></p>	<p>- <u>Dadangiz ketib qoldilarmi?</u> - <u>Hozir ketdilar. Lola tuzukmi ayajon? Xotin turgan verida dong qotib qoldi. Qunduz uni ayajon deb atadi. U baxtdan entika-entika Qunduzning boshini silar. erkalardi.</u></p>
--	--

Hozirgi o'zbek tilida hozirgi-kelasi zamon fe'l shakli **bevosita nutq momentida bo'lib turgan harakatni** bildirish uchun kam qo'llanadi. Bu ma'noda, asosan, *-yap, -yotib, -moqda* affikslari yordamida yasaladigan fe'l shakllari qo'llanadi. Lekin o'tmishdagi ma'lum bir konkret vaqtda bajarilishda bo'lgan harakatni ifodalash uchun *-(a)r + edi* yordamida yasaluvchi shakl juda ko'p qo'llanadi: *Opa-singil hovlini to'ldirib kulishar, toza havoni zirqirib chinqirishar edi.*

*Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladi, o'zbek tilida hozirgi zamon fe'li* doimiy to'xtovsiz takrorlanib turadigan ish harakat (1); ma'lum vaziyatda kelasi zamon ma'nosi (2); o'tgan zamon ma'nosini (1) ham anglatadi. Shuningdek, harakatning bajarilish momentini ta'kidlash boshqa shu zamoni ifodalovchi boshqa grammatik shakl, harakatning bajarilish holatiga qaratilgan fikr esa boshqa grammatik ko'rsatkich bilan ifodalanadi.

Hozirgi kelasi zamom shaklida qo'llanganda odatdagi doimiy harakat ma'nosini ifodalaydigan ko'pgina fe'llar *-(a)r + edi* yordamida yasaluvchi shaklda qo'llanganda, harakatning bajarilish vaqti ma'lum darajada chegaralangan bo'ladi. Demak, bunda **edi** to'liqsiz fe'li harakatning bajarilish vaqtiga ma'lum aniqlik (konkretlik) kiritadi. Ana shu narsa o'tmishdagi biror momentda bo'layotgan harakatni ifodalashda *-yotgan+edi, -moqda + edi* yordamida yasaluvchi shakllar bilan birga *-(a)r + edi* yordamida yasaluvchi shaklning qo'llanishiga imkon beradi. Ko'rinadiki, ma'lum bir grammatik shakllar hozirgi zamon fe'lining harakatning bajarilish vaqtining ma'lum darajada chegaralanishiga xizmat qiladi.

O'zbek tilida hozirgi zamon harakatning **nutq vaziyatidan oldin boshlanganligi va nutq momentida ham tugamaganligini** bildiradi. Bunday asosiy narsa harakatning xuddi nutq momentida bajarilayotgan bo'lishi emas, balki harakatning nutq momentidan avval boshlanganligi va hozir ham tugamaganligi, davom etayotganligidir: *Bolalarimiz zamonaviy kasb egalari bo'lib voyaga yetmoqda. Ukang gulzorda ishlayapti.* Demak, o'zbek tilida hozirgi zamon faqat nutq momentini emas, balki nutq momentidan ancha oldin boshlanib, hali ham davom etayotgan harakatni ham ifodalaydi.

O'zbek tilida **hozirgi-kelasi zamon** shakli ajratiladi. Manbalarda bu zamon kategoriyasining ikki ko'rinishi farqlanadi:

1) hozirgi-kelasi zamon aniqlik shakli;

2) hozirgi-kelasi zamon gumon shakli.

Hozirgi-kelasi zamon shakli quyidagi holatlarni ifodalashi mumkin:

1) harakatning bajarilishi biror vaqt bilan chegaralanmaydi, u predmetning qonuniy, doimiy belgisiga aylangan bo'ladi: qush uchadi, yozda havo isiydi, kulgi umri uzaytiradi va b.

2) shaxs yoki predmetning odatdagi, doimiy harakatini bildiradi: Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyini supuradi, non yopadi, ko'rpa qaviydi, ... (Oybek).

3) harakatning bajarilishi bevosita nutq momentiga, hozirga oid bo'lishi mumkin: *Yigit nihoyatda isib ketgan. Peshonasi, yuzlaridan tinmay ter quyadi* (Said Ahmad).

4) kelasi zamoni bildiradi: Bolang uch-to'rt kun qiynaladi, keyin o'rganib ketadi (A.Qahhor).

Demak, o'zbek olam lisoniy manzarasida hozirgi kelasi zamon harakatning bajarilishining biror vaqt bilan chegaralanmasligi, shaxs yoki predmetning odatiy harakatni bildirishi, harakatning bajarilishi bevosita nutq momentiga oid bo'lishini aks ettiradi.

Kelgusida bajarilishi aniq bo'lgan har qanday harakat hozirgi o'zbek tilida shu shakl orqali ifodalanadi.

Hozirgi-kelasi zamon gumon shakli sifatdoshning *-(a)r (-mas)* affiksi bilan yasaluvchi turini shaxs-son bilan tushlash orqali hosil qilinadi: *yozarman, yozarsan.*

Hozirgi-kelasi zamon fe'l shakllari, ayrim farqli modal ma'nolaridan qat'iy nazar, hozirgi va kelasi zamon ma'nolarini ifodalay oladi. Xuddi shu xususiyatiga ko'ra «hozirgi-kelasi zamon shakli» deb ataladi.

A.Kononov ham o'zbek tilida zamon shakllarini quyidagicha farqlaydi:

1. Kelasi aniq zamon (Настоящее-будущее время).

2. Hozirgi aniq zamon (Настоящее конкретное время).

3. Hozirgi davomiy zamon (Настоящее длительное время).

Hozirgi-kelasi zamon ma'nosi asosan quyidagi holatlarni ifodalaydi:

1. Muayyan vaqt bilan cheklanmagan ish-harakat, ya'ni vaqtinchalik shart-sharoitdan tashqarida amalga oshiriladigan, doimiy, odatda, tabiatan muntazam takrorlanadigan harakat: *Oy yoritadi, lekin isitmaydi.*

2. Odatiylik, muntazamlik tufayli yoki tasvirning jonliligi uchun o'tgan zamonda prognoz qilingan harakat:

3. Yaqin kelajakda sodir bo'ladigan ish-harakat: *Men bugun maktabga bormayman.*

Ko'rinadiki, A.Kononov ham aniq hozirgi zamon, davomiy hozirgi zamon, hozirgi kelasi zamonlarni farqlaydi hamda ularning orasidagi ma'noviy farqni konkret ko'rsatib beradi. Bu tasnifdagi farqlar muayyan vaqt bilan chegaralanish, vaqtinchalik harakat yoki doimiylik, muntazamlik ma'nosi bilan bir biridan farq qiladi. Demak, aytish mumkinki, o'zbek olam lisoniy manzarasida fe'l zamonlari faqat ish-harakatning nutq momentiga nisbati emas, balki harakatning davomiyligi, muntazamligi, vaqtning chegaralanligi kabi ma'nolari ham aks etadi.

Ingliz tilida fe'lining hozirgi zamon shaklining ham bir necha ko'rinishlari farqlanadi:

1) hozirgi oddiy zamon (Simple Present Tense);

2) hozirgi davomli zamon (Continuous);

3) hozirgi natijali zamon (Present Perfect Tense).

Ingliz tilida fe'lining hozirgi oddiy zamon (Simple Present Tense) shakli infinitivning "to"siz shakliga to'g'ri keladi. Mazkur zamon shakli har xil holatlarda ishlatilishi mumkin. U doim ham hozir bo'layotgan ish-harakat yoki holatni ifodalamaydi. Oddiy hozirgi zamon quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Biror narsa yoki kimsaning hozirgi holati yoki maqomini ifodalash uchun holat fe'llari bilan. *Jon is hungry (Jonning qorni och). Now I believe that you are right (Endi haqligingga ishonyapman (yoki ishondim). That cake smells good (Anavi shirin kulchadan yaxshi hid kelyapti).*

2. Oddiy hozirgi zamon mutlaq haqiqat yoki tabiiy qonuniyatni ifodalash uchun ishlatiladi. The moon affects the tides (Oy suvning ko'tarilishi va pasayishiga ta'sir qiladi). Parallel lines never meet (Parallel chiziqlar hech qachon to'qnashmaydi). Hydrogen and oxygen combine to make water (Suv hosil bo'lishi uchun vodorod bilan kislorod qo'shiladi).

3. Oddiy hozirgi zamon odat tusiga kirgan, takrorlanuvchi ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Beverly drinks coffee every morning (Beverli har kuni ertalab kofe ichadi). We always celebrate my birthday with a family party (Biz doim mening tug'ilgan kunimni oilaviy kecha bilan nishonlaymiz).

4. Hozirgi oddiy zamon badiiy, ilmiy, sahna va san'at asarlarini muhokama qilishda boshqalarning avval aytgan yoki yozgan gaplariga murojaat qilinganda tarixiy hozirgi zamonni ko'rsatish uchun ishlatiladi: In the short story "The Lottery", Shirley Jackson writes an allegory of the injustice of life.

5. Hozirgi oddiy zamon biror narsani izohlash, tushintirish yoki aniqlashda ishlatiladi: To fight against criminality means to prevent and solve crimes (Jinoyatchilikka qarshi kurashmoq jinoyatlarni oldini olmoq va ochmoq demakdir).

6. Hozirgi oddiy zamon shart va payt ergash gaplarda kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ish-harakatni ifodalashda ishlatiladi: Uncle Robert will give you fifty dollars if he likes your work // Agar ishing yoqsa, Robert amaki senga ellik dollar beradi.

7. Hozirgi oddiy zamon kelajakda sodir bo'lishi aniq bo'lgan ish-harakatni ifodalashda ishlatiladi: The plane leaves at 9:25 tonight (Samolyot kechqurun soat 9:25da uchadi).

Ko'rinadiki, ingliz lisoniy olamida oddiy hozirgi zamonning o'zi harakatning mazmunini ifodalashiga ko'ra farqlanadi: narsa yoki shaxsning doimiy holati yoki harakati, mutlaq haqiqat yoki tabiat holati, odat tusiga kirgan va takrorlanuvchi harakatni ifodalashi bilan hozirgi zamonning boshqa shakllaridan farqlanadi.

Hozirgi davomli zamon (Continuous) ish-harakatning muayyan vaqtda sodir bo'lib turganligini yoki hali tugamaganligini bildiradi. Hozirgi davom etuvchi zamon (The Present Continuous Tense) to be yordamchi fe'lining hozirgi zamon shakllaridan biri (am, is, are) va asosiy fe'lining hozirgi zamon sifatdosh shakli (Participle I) yordamida yasaladi. Mazkur zamon ayni paytda sodir bo'lib turgan, lekin tugaydigan ish-harakatni ifodalaydi. Present Continuous quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Hozir sodir bo'lib turgan ish-harakatni ifodalashda *now, today, this minute, this month, this year, at the moment* kabi va boshqa payt ravishlari bilan: The children are playing outside today // Bugun bolalar tashqarida o'ynashyapti.

2. Odat bo'lib qolgan ish-harakatni, ko'pincha salbiy munosabat bildirilganda: That little girl is always biting her fingernails // O'sha qizcha doim tirnog'ini tishlab yuradi.

3. Kelgusida sodir bo'lishi kutilayotgan ish-harakatni ifodalashda *this afternoon, tonight, tomorrow, next week, soon, next month* va shu kabi boshqa payt ravishlari bilan: We are going to the theatre tonight // Bugun kechqurun teatrga bormoqchimiz.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, ingliz tilida hozirgi davomli zamon fe'li harakatning nutq paytida davom etib turgani bilan birga odat bo'lib qolgan ish-harakatga salbiy munosabat bildirish, kelgusida sodir bo'lishi kutilayotgan harakatni ifodalaydi.

Ingliz tilida zamon kategoriyasi faqat harakatning sodir bo'lish paytini bildirmay, fe'ling ma'lum bir ma'noviy guruhlarining zamonga xoslanishi ham kuzatiladi. Masalan, ingliz tilida jismoniy, aqliy va ruhiy hissiyotlarni ifodalaydigan quyidagi fe'llar Continuous zamonlarida ishlatilmasdan, Simple (oddiy) zamonlarda ishlatiladi.

to like	yoqtirmoq
to know	bilmoq
to understand	tushunmoq
to notice	payqamoq
to love	sevmoq
to feel	sezmoq
to have	ega bo'lmoq
to believe	ishonmoq
to forget	unutmoq
to wish	xohlamoq
to remember	eslamoq
to see	ko'rmoq
to hear	eshitmoq
to intent	jazm qilmoq

Hozirgi natijali zamon (Present Perfect Tense) have (uchinchi shaxs birlikda has) yordamchi fe'li va asosiy fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi (Past Participle) yordamida yasaladi. Fe'ning bu zamondagi shakli o'zbek tilida turlicha ifodalinishi mumkin. Perfect zamonlarining asosiy xususiyati ish-harakatning tugaganligi yoki tugamaganligini, ya'ni natijani ko'rsatishdir. Shuning uchun uni o'zbek tiliga oddiy o'tgan zamonda (I have walked - Men piyoda yurdim), ravishdosh yordamida (Yurib bo'ldim/qo'ydim/keldim), o'tgan zamon sifatdoshi vositasida (I have been to London. - Men Londonda bo'lganman.) tarjima qilinadi.

O'zbek tili hozirgi zamon fe'l shakllari sirasida bu mazmunli zamon ajratilmaydi. Ingliz tilida mazkur zamon ish-harakatning tugagan yoki tugamaganligini ifodalashi bilan hozirgi zamonning boshqa shakllaridan farqlanib turadi.

Present Perfect zamonini quyidagi holatlarda qo'llanadi:

1. O'tmishda boshlanib, hozirgacha yoki hozirga yaqin bo'lgan biror vaqtgacha davom etgan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi: They have waited since ten o'clock // Ular soat o'ndan beri kutishadi (hozir ham kutishyapti).

2. Present Perfect zamonini o'tmishda boshlanib, hozirga yaqin bir vaqtda tugagan yoki yaqin kelajakda tugaydigan ish-harakatni ifodalashda qo'llash mumkin: I have already finished those exercises // O'sha mashqlarni allaqachon bajarib bo'ldim (bo'lganman).

Demak, ingliz olamning lisoniy manzarasida hozirgi zamon o'zbek tilidan quyidagicha farqlanadi:

<u>O'zbek tilida</u>	<u>Ingliz tilida</u>
Aniq hozirgi zamon	hozirgi oddiy zamon (Simple Present Tense)
<u>hozirgi zamon davom fe'li</u>	<u>hozirgi davomli zamon (Continuous)</u>
<u>hozirgi-kelasi zamon fe'li</u>	hozirgi natijali zamon (Present Perfect Tense)

Bu jadvaldan o'zbek va ingliz tilida hozirga zamon shaklining uch ko'rinishi bo'lib, bu ikki tilda hozirgi zamon mazmuni o'xshashdek tuyuladi. Aslida bunday emas. O'zbek va ingliz tilida zamon ish-harakatning sodir bo'lish payti va holati (oldin boshlanib haliyam davom etayotgan, doimiy davom etadigan, aniq bir paytda tugagan, yaqin kelajakda sodir bo'ladigan harakat)ni ifodalashi bilan farqlanadi. Ingliz tilidagi hozirgi oddiy zamon (Simple Present Tense) o'zbek tilidagi aniq hozirgi zamonga yaqin kelsa, ingliz va o'zbek tilida hozirgi zamon davom fe'li mazmunan aynandir. Ammo o'zbek tilidagi hozirgi kelasi zamonning ingliz tilidagi ekvivalenti yo'qdek. Ingliz tilidagi hozirgi natijali zamon (Present Perfect Tense) faqat ingliz olam lisoniy manzarasiga oid.

#### ADABIYOTLAR

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 252 b.–B. 79.
2. O'zbek tili grammatikasi.Morfologiya.I tom.–Toshkent: Fan, 1975.–609 b.–B. 76.
3. O'zbek tili grammatikasi.Morfologiya.I tom.–Toshkent:Fan,1975.–609b.–B. 438.
4. Кононов А.Грамматика узбекского языка.–Ташкент,1948.–287с.–С.165-166.
5. Rustamov M. A., Asriyans M. I. Ingliz tili grammatikasi: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 111 b. – B. 43.